



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
HUZURIDAGI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK
VA JAMOAT SALOMATLIGI QO‘MITASINING
QARORI**

Oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslantiruvchi ayrim moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajalari, oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibiy qismlaridan foydalanish, aralashtirish va zararsizlantirishga qo‘yiladigan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (_____-son SanQvaN) tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi PF-6035-son “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslantiruvchi ayrim moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajalari, oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibiy qismlaridan foydalanish, aralashtirish va zararsizlantirishga qo‘yiladigan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan olti oy o‘tgach kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash
vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining
2024-yil __ _____ -son qaroriga
ILOVA

Oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslantiruvchi ayrim moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajalari, oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibiy qismlaridan foydalanish, aralashtirish va zararsizlantirishga qo‘yiladigan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (_____-son SanQvaN)

Mazkur sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (bundan buyon matnda sanitariya qoidalari deb yuritiladi) quritilgan, suyultirilgan, qayta ishlangan, ko‘p tarkibli oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqani ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajalarini belgilash (bundan buyon matnda REMD deb yuritiladi), oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibiy qismlaridan (ingredientlaridan) foydalanish, aralashtirish va zararsizlantirishga (detoksikasiya) qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu sanitariya qoidalarining 1-ilovasida ko‘rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqani birlamchi ishlab chiqarish, ishlab chiqarish yoki qayta ishlash, sotish va (yoki) oziq-ovqat mahsulotlari muomalasi bilan shug‘ullanuvchi barcha oziq-ovqat biznesi operatorlariga nisbatan qo‘llaniladi.

2. Oziq-ovqat biznesi operatorlari oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilishlari, oziq-ovqat zanjirining barcha bosqichlarida tegishli ishlab chiqarish amaliyotlarini qo‘llagan holda, oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirish choralarini ko‘rishlari shart.

3. Mazkur sanitariya qoidalarida quyidagi atamalardan foydalaniladi:

ifloslantiruvchi moddalar (kontaminantlar) - oziq-ovqat mahsulotlariga yoki mahsuldor hayvonlar uchun ozuqaga ataylab qo‘shilmagan, lekin o‘simlikshunoslik, chorvachilik va veterinariya sohasidagi amaliyotlar, shuningdek ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash, ishlov berish, qadoqlash, o‘rash, tashish yoki saqlash jarayonlari natijasida yoki atrof-muhitning ifloslanishi oqibatida ushbu mahsulotlarda yoki ozuqalarda mavjud bo‘lgan har qanday modda. Kontaminantlarga pestitsid qoldiqlari, veterinariya dori vositalari, texnologik yordamchi moddalar hamda bakterial toksinlar kirmaydi;

dastlabki qayta ishlash - don yoki uning yuzasini quritishdan tashqari fizik yoki termik qayta ishlash. Don qobiqlarini fizik (inson aralashuvida) tozalash, saralash va quritish jarayonlari dastlabki qayta ishlash deb hisoblanmaydi, chunki donga fizik jihatidan ta’sir ko‘rsatilmaydi va tozalash hamda saralashdan keyin don butunligi zarar ko‘rmaydi;

o‘simlik dori vositalari - o‘simliklardan (masalan, butun o‘simliklardan yoki ularning qismlaridan, maydalangan yoki kesilgan o‘simliklardan) turli xil qayta ishlash usullari (jumladan, presslash, siqish, ekstraksiya qilish (selektiv erituvchi yordamida (ekstragent) qattiq

jismdan suyuq fazaga bir yoki bir nechta komponentlarni olish jarayoni), fraksiyalarga ajratish (o'simlik moylarini termomexanik usulda turli erish nuqtalariga ega fraksiyalarga ajratish jarayoni), haydash, konsentratsiyalash, quritish va fermentatsiya) orqali olingan ingrediyentlardir. Bu ta'rif, shuningdek, mayda qilib maydalangan yoki kukun holiga keltirilgan o'simliklar, o'simlik qismlari, suv o'tlari, zamburug'lar va lishayniklar, damlamalar, ekstraktlar, efir moylari (1-ilovaning 6-bo'limi 1-bandida ko'rsatilgan o'simlik moylaridan tashqari), siqib olingan sharbatlar va qayta ishlangan eksudatlarga (suyuqlik) ham taalluqlidir.

oziq-ovqat mahsulotlariga fizik ishlov berish jarayoni (fizik ishlov berish) - donni (don ekinlarini) qobig'idan cho'tkalar va (yoki) ishqalash (obdirlovchi) moslamalari yordamida kuchli (intensiv) tozalash jarayoni;

oziq-ovqat biznesi operatorlari - oziq-ovqat zanjirining barcha bosqichlarida biznes yurituvchi, oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini ta'minlash hamda oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilikka rioya etish uchun javobgar jismoniy va yuridik shaxslar.

2-bob. Quritilgan, suyultirilgan, qayta ishlangan va ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsulotlari uchun ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajalari

4. Quritilgan, suyultirilgan, qayta ishlangan yoki ko'p tarkibli (birdan ortiq ingrediyentli) oziq-ovqat mahsulotlariga ilovada belgilangan ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan maksimal miqdorini qo'llashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

quritish yoki suyultirish jarayoni natijasida ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasining o'zgarishi;

qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasining o'zgarishi;

oziq-ovqat mahsulotidagi ingrediyentlarning nisbati;

miqdoriy ko'rsatkichning analitik chegarasi ya'ni namunadagi moddaning eng kichik miqdori (konsentratsiyasi).

5. Davlat kuzatuv (nazorati) tadbirlari davomida oziq-ovqat operatori tegishli ingrediyentlarni quritish, suyultirish, qayta ishlash va (yoki) ingrediyentlarni aralashtirish jarayonlari yoki tegishli quritilgan, suyultirilgan, qayta ishlangan va (yoki) ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsulotlari uchun oziq-ovqat konsentratsiyasi yoki suyultirish koeffitsiyenti(lar)ni taqdim etishi va asoslashi kerak.

6. Oziq-ovqat biznesi operatorlari zarur konsentratsiyalash yoki suyultirish koeffitsiyenti(lar)ni taqdim etishining iloji bo'lmasa yoki oziq-ovqat operatori tomonidan taqdim etilgan koeffitsiyent(lar) keltirilgan asosga mos kelmasligi haqida dalillar mavjud bo'lgan hollarda, vakolatli organ bunday koeffitsiyent(lar)ni mavjud ma'lumotlar asosida va inson salomatligini maksimal darajada himoya qilish maqsadida mustaqil ravishda belgilaydi.

7. Agar quritilgan, suyultirilgan, qayta ishlangan va (yoki) ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsulotlari uchun ifloslantiruvchi moddalarning o'ziga xos ruxsat etilgan maksimal darajalari belgilanmagan bo'lsa, ушбу санитария қоидаларининг 5-6-bandlari qo'llaniladi.

3-bob. Oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibiy qismlaridan (ingrediyentlaridan) foydalanish, aralashtirish va zararsizlantirishga (detoksikasiya) qo'yiladigan talablar

8. Agar oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslanishining REMD si mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasida belgilangan bo'lsa, ayniqsa yakuniy iste'molchiga yetkazib berishdan yoki oziq-ovqat tarkibiy qismi sifatida foydalanishdan oldin saralash yoki boshqa fizik ishlov berish talab etiladigan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan quyidagi shartlarga asosan muomalaga kiritilishi mumkin:

yakuniy iste'molchi uchun muomalaga chiqarilmaydi va oziq-ovqat tarkibiy qismi (ingrediyenti) sifatida ishlatilmaydi;

ushbu oziq-ovqat mahsulotidagi har bir kontaminant (ifloslantiruvchi) uchun mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasida belgilangan maksimal darajalarga mos kelishi lozim;

9. Mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasida ko'rsatilgan ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajasiga mos kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari ingrediyentlar sifatida ishlatilishi taqiqlanadi.

10. Mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasida belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi kontaminant (ifloslantiruvchi moddalar) miqdori ruxsat etilgan maksimal darajalari belgilangan mahsulotlarni, ilovada belgilangan kontaminantning maksimal darajadan yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan aralashtirish taqiqlanadi.

11. Kontaminatsiyani (ifloslanish darajasini) pasaytirish maqsadida saralanadigan yoki boshqa turdagi mexanik ishlov beriladigan oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari yoki tarkibiy qism (ingrediyent) sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan aralashtirish taqiqlanadi.

12. Kontaminatsiya (ifloslanish) darajasini pasaytirish maqsadida saralash yoki boshqa fizik ishlov berishdan o'tkazilgan oziq-ovqat mahsulotlari bozorga oxirgi iste'molchi uchun muomalaga kiritilgan yoki oziq-ovqat tarkibiy qismi (ingrediyenti) sifatida foydalaniladigan oziq-ovqat mahsulotlari uchun mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasida belgilangan maksimal darajalar bo'lishi, undan oshib ketmasligi va ishlatilgan ishlov berish usuli boshqa zararli moddalarning qoldiqlari paydo bo'lishiga olib kelmagan taqdirdagina muomalaga kiritilishi mumkin.

13. Mazkur sanitariya qoidalarining 1-ilovasining 2-bo'limida ko'rsatilgan mikotoksinlar mavjud bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini kimyoviy qayta ishlash orqali zararsizlantirishi (detoksikasiya qilinishi) mumkin emas.

14. Har bir alohida birlikning tamg'alanishi va oziq-ovqat mahsulotiga ilova qilingan asl hujjat, undan foydalanish ko'rsatmasini o'z ichiga olishi va quyidagi ma'lumotni kiritishi lozim: "Mahsulot yakuniy iste'molchiga yetkazib berishdan yoki oziq-ovqat tarkibiy qismi sifatida ishlatishdan oldin (ifloslantiruvchi modda(lar) nomi) ni kamaytirish maqsadida saralash yoki boshqa fizik ishlovdan o'tkazilishi shart".

15. Oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanish darajasi, shuningdek, ifloslanishni kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning ta'siri monitoring, so'rov dasturlari va kerak bo'lganda ko'proq ixtisoslashtirilgan tadqiqot dasturlari orqali baholanishi kerak.

16. Kontaminatsiyalangan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish sog'liq uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan belgilar mavjud bo'lganda, xavfni baholash choralarini qo'llash kerak va sog'liq uchun xavflar aniqlansa, xavflarni boshqarish choralarini ko'rilishi kerak.

17. Mazkur sanitariya qoidalarini ishlab chiquvchilar ro'yxati 2-ilovada keltirilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslantiruvchi ayrim moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajalari, oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibiy qismlaridan foydalanish, aralashtirish va zararsizlantirishga qo'yiladigan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga
(_____ -son SanQvaN)
1-ILOVA

Oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqada nitratlarning ruxsat etilgan maksimal darajasi

№ t/r	Oziq-ovqat mahsulotining nomi	REMD (mg NO ₃ /kg)		Izoh
		3	4	
1	2	3	4	5
1.1	Yangi ismaloq (<i>Spinacia oleracea</i>)		3 500	REMD qayta ishlanadigan va dalalardan qayta ishlash korxonalariga qadoqlanmagan holda olib boriladigan yangi ismaloqqa taalluqli emas.
1.2	Konservalangan, qattiq muzlatilgan yoki muzlatilgan ismaloq		2 000	
1.3	Yangi salat bargi (<i>Latuca sativa L.</i>) (yopiq va ochiq tuproq (grunt) yetishtirilgan), ushbu bo'limning 4-bandida ko'rsatilgan salat bargi bundan mustasno	a) 1 oktyabrdan 31 martgacha bo'lgan hosil: yopiq tuproqda yetishtirilgan yirik yaproqli salat bargi	5 000	
		Ochiq tuproqda yetishtirilgan yirik yaproqli salat bargi	4 000	
		b) 01 apreldan 30 sentyabrgacha bo'lgan hosil: Yopiq tuproqda yetishtirilgan salat bargi	4 000	

		Ochiq tuproqda yetishtirilgan salat bargi	3 000	
1.4	«Aysberg» salat bargi	Yopiq tuproqda yetishtirilgan salat bargi	2 500	
		Ochiq tuproqda yetishtirilgan salat bargi	2 000	
1.5	Rukkola (<i>Eruca sativa</i> , <i>Diplotaxis sp.</i> , <i>Brassica tenuifolia</i> , <i>Sisymbrium tenuifolium</i>)	a) 01 oktyabrdan 31 martgacha bo‘lgan hosil	7 000	
		b) 01 apreldan 30 sentyabrgacha bo‘lgan hosil	6 000	
1.6	Yosh bolalar uchun qo‘shimcha oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlangan don mahsulotlari		200	REMD tayyor oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgilanadi (bozorga shunday yoki ishlab chiqaruvchining ko‘rsatmalariga muvofiq qayta tiklangandan so‘ng).
1.7	Kartoshka*		250,0	
1.8	Oq karam*	Erta hosil (1-sentyabrgacha)	900,0	
		Kechki hosil	500,0	
1.9	Sabzi	Erta hosil (1-sentyabrgacha)	400,0	
		Kechki hosil	250,0	
1.10	Tomat pastasi*		150,0	
1.11	Bodring*	Himoyalangan tuproq	300,0	
		Ochiq tuproq	150,0	
1,12	Lavlagi*		1400,0	
1,13	Piyoz*		80,0	
1,14	Ko‘k piyoz	Himoyalangan tuproq	800,0	
		Ochiq tuproq	600,0	

1,15	Bargli sabzavotlar, quyida ko'rsatilganlardan tashqari	Himoyalangan tuproq	3000,0	
		Ochiq tuproq	2000,0	
1,16	Qovun*		90,0	
	Tarvuz*		60,0	
1,18	Bulg'or qalampiri*	Himoyalangan tuproq	400,0	
		Ochiq tuproq	200,0	
1,19	Kabachki* (qovoqcha)		400,0	
1,20	Qovoqlar* (konservalangan bolalar oziq-ovqatini ishlab chiqarish uchun)		200,0	
1,21	Olmalar*		60,0	
1,22	Noklar*		60,0	
1,23	Dasturxon uchun uzun navlari*		60,0	

*Izoh: ushbu ko'rsatilgan mahsulotlarda nitratlarining REMD si O'zbekiston Respublikasidagi qishloq xo'jaligi texnologiyalari va qo'llaniladigan o'g'itlarni hisobga olgan holda, ekinlarning xususiyatlaridan kelib chiqib (o'sish sur'ati, azotli o'g'itlarni haddan tashqari ishlatish bilan nitratlarni to'plash qobiliyati va boshqalar) belgilangan.

Mikotoksinlar

2.1 Aflotoksinlar

№ t/r	Oziq-ovqat mahsulotlari	REMD, mkg/kg			Ma'lumot
		3	4	5	
		B1	Umumiy miqdor B1, B2, G1 va G2	M1	
2.1.1	Yong'oq (yer yong'og'i) va boshqa moyli o'simliklarning urug'lari, odam iste'mol qilishdan oldin yoki tarkibiy qism sifatida foydalanishdan oldin saralanishi yoki boshqa ishlov berilishi kerak, yong'oq (yer yong'og'i) va tozalangan o'simlik	8,0	15,0	-	Daraxtlarda o'sadigan yeryong'oq va yong'oqning yeyilishi mumkin bo'lgan qismlari uchun REMD ko'rsatilgan. Braziliya yong'oqlaridan tashqari, agar

	<p>moyini tayyorlash uchun mo'ljallangan boshqa moyli o'simliklarning urug'lari bundan mustasno</p>				<p>yeryong'og' va bunday yong'oqlarni (qobig'ida) tadqiqot (sinov) o'tkazilsa, aflatoksin tarkibini hisoblashda barcha ifloslantiruvchi moddalar iste'mol qilish mumkin bo'lgan qismga to'g'ri keladi deb hisoblanadi.</p>
2.1.2	<p>Yagona ingredient sifatida ishlatiladigan yoki bevosita inson iste'moli uchun mo'ljallangan yeryong'og' (yeryong'og'i), boshqa moyli o'simliklarning urug'lari va ulardan olingan mahsulotlar, bundan mustasno holatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qayta ishlash uchun mo'ljallangan xom o'simlik yog'i - tozalangan o'simlik yog'i 	2,0	4,0	-	
2.1.3	<p>Ushbu bob 1-bandining 5 va 7-kichik bandlarida ko'rsatilgan yong'oqlardan tashqari, inson iste'mol qilishdan yoki tarkibiy qism sifatida foydalanishdan oldin saralanishi yoki</p>	5,0	10,0	-	

	boshqa mexanik ishlov berilishi kerak bo'lgan daraxt yong'oqlari;				
2.1.4	2.1.6 va 2.1.8-bandlarda ko'rsatilgan yong'oqlar bundan mustasno, tarkibiy qism sifatida ishlatiladigan yoki to'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli uchun mo'ljallangan daraxt yong'oqlari va ularni qayta ishlash mahsulotlari	2,0	4,0		
2.1.5	Bodom, pista va o'rik mag'zi inson tomonidan iste'mol qilinishidan yoki tarkibiy qism sifatida ishlatilishidan oldin saralanishi yoki boshqa turdagi ishlov berilishi kerak	12,0	15,0	-	
2.1.6	Bodom, pista va o'rik mag'zi to'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli yoki tarkibiy qism sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan.	8,0	10,0	-	
2.1.7	Funduk va Braziliya yong'og'i, inson tomonidan iste'mol qilinishidan yoki tarkibiy qism sifatida ishlatilishidan oldin saralanishi yoki boshqa ishlov berilishi kerak	8,0	15,0	-	
2.1.8	Funduk va Braziliya yong'og'i to'g'ridan-to'g'ri inson	5,0	10,0	-	

	iste'moli yoki tarkibiy qism sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan.				
2.1.9	Quritilgan mevalar, quritilgan anjirdan tashqari, inson tomonidan iste'mol qilinishidan yoki tarkibiy qism sifatida ishlatilishidan oldin saralanishi yoki boshqa turdagi mexanik ishlov berilishi kerak	5,0	10,0	-	
2.1.10	Quritilgan anjirdan tashqari quritilgan mevalar va ularni qayta ishlash mahsulotlari to'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli yoki tarkibiy qism sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan.	2,0	4,0	-	
2.1.11	Barcha don (don ekinlari) va dondan olingan barcha ekinlar (don ekinlari) dan olingan barcha mahsulotlar, shu jumladan donni qayta ishlash mahsulotlari (don ekinlari). Ushbu bo'limning 1-bandining 2.12, 2.15 va 2.17-bandlarida ko'rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno	2,0	4,0	-	
2.1.12	Makkajo'xori va guruch inson tomonidan iste'mol qilinishidan yoki	5,0	5,0	-	

	tarkibiy qism sifatida ishlatilishidan oldin saralanishi yoki boshqa mexanik ishlov berilishi kerak				
2.1.13	Makkajo‘xori uni, shrot (yong‘oq va uning mag‘zidan yog‘ olinishidan qolgan qoldiq), yormalar, makkajo‘xoridan olingan	-	5,0		
2.1.14	Keyinchalik qayta ishlash uchun mo‘ljallangan jo‘xori doni		10		
2.1.15	Xom sut, issiqlik bilan ishlangan sut va asosi sut bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun	-	-	0,050	
2.1.16	Ziravor turlari: Capsicum spp (uning quritilgan urug‘lari, butun yoki maydalangan, shu jumladan chili, maydalangan chili, Kayen qalampiri va shirin bulg‘or qalampiri kukuni) Piper spp. (ularning urug‘lari, shu jumladan oq va qora qalampir donalari) Myristica fragrans (muskat yong‘og‘i) Zingiber officinale (zanjabil) Curcuma longa (kurkuma) va ushbu bandda ko‘rsatilgan bir yoki bir	5,0	10,0	-	

	nechta ziravorlarni o'z ichiga olgan ziravor aralashmalari				
2.1.17	Zanjabil	5,0	10,0	-	
2.1.18	Don va mevali ingrediyentlarni o'z ichiga olmaydigan sut mahsulotlaridan tashqari qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari	0,10	5,0	-	Quruq moddalar uchun REMD ko'rsatilgan.
2.1.19	Bolalar uchun boshlang'ich moslashtirilgan aralashmalar (boshlang'ich) va bolalarni keyingi iste'moli uchun foydalaniladigan aralashmalar, shu jumladan boshlang'ich sutli va bolaning keyingi iste'moli uchun foydalaniladigan sutli aralashmalar	-	-	0,025	Maksimal ruxsat etilgan daraja tayyor oziq-ovqat mahsulotlari uchun ko'rsatilgan (bozorga shunday yoki ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq qayta tiklanganidan keyin joylashtirilgan).
2.1.20	Maxsus tibbiy maqsadlar uchun chaqaloqlarga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari	0,10	-	0,025	Sut va sut mahsulotlari uchun ruxsat etilgan maksimal darajalar tayyor ovqatlar uchun (bozorga sotiladigan yoki ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq qayta tiklanganidan keyin) hamda sut va sut mahsulotlaridan

					tashqari boshqa oziq-ovqatlar uchun - quruq moddada belgilanadi.
2.1.21	Qurilgan anjir	6,0	10,0	-	

2.2. Dezoksinivalenol

№	Oziq-ovqat mahsuloti	REMD, mkg/kg	Izoh
2.2.1	Qayta ishlanmagan don (donli ekinlar) qattiq bug'doy navi, jo'xori va makkajo'xori bundan mustasno	1 250	REMD dastlabki qayta ishlash uchun bozorda joylashtirilgan qayta ishlanmagan donlarga (don ekinlariga) nisbatan qo'llaniladi.
2.2.2	Qayta ishlanmagan bug'doyning qattiq navi, qayta ishlanmagan jo'xori va makkajo'xori	1 750	REMD dastlabki qayta ishlash uchun bozorda joylashtirilgan qayta ishlanmagan donlarga (don ekinlariga) nisbatan qo'llaniladi.
2.2.3	To'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli uchun mo'ljallangan dondan qilingan un (don ekinlari), manniy yormasi, kepak va oziq-ovqat mahsuloti sifatida to'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli uchun sotiladigan urug'lar	750	
2.2.4	Makaronli maxsulotlar (quruq)	750	Makaron (quruq) namlik miqdori taxminan 12 foiz bo'lgan makaronni anglatadi.
2.2.5	Non (shu jumladan katta bo'lmagan non mahsulotlari), qandolatli un mahsulotlari, biskvitlar, don asosli gazaklar	500	

	(donli mahsulotlar) va tayyor (quruq) don asosli nonushta (donli mahsulotlar)		
2.2.6	To'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilish uchun mo'ljallanmagan makkajo'xori uni	1250	
2.2.7	Odamlarning bevosita iste'moli uchun mo'ljallanmagan boshqa maydalangan (tegirmondan o'tqizilgan) un mahsulotlari	750	
2.2.8	Qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari, don tarkibiga ega bo'lmagan sut mahsulotlari bundan mustasno	200	Quruq moddalar uchun REMD ko'rsatilgan.

2.3. Fumonizinlar

№	Mahsulot	B1 va B2 ning umumiy miqdori REMD, mkg/kg	Izoh
2.3.1	Ho'l maydalash usuli bilan qayta ishlashga mo'ljallangan makkajo'xori bundan mustasno, qayta ishlanmagan makkajo'xori	4000	REMD dastlabki qayta ishlash uchun bozorga chiqarilgan qayta ishlanmagan don(lar)ga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu istisno faqat makkajo'xori uchun amal qiladi, buning uchun, xususan, markirovka tufayli, u faqat nam maydalash jarayonida (kraxmal ishlab chiqarishda) foydalanish uchun mo'ljallanganligi.

2.3.2	Makkajo‘xori va to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste‘mol qilish uchun makkajo‘xoridan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari, ushbu bo‘lim 6-bandining 3 va 4-kichik bandlarida ko‘rsatilgan mahsulotlar bundan mustasno	1000	
2.3.3	Tayyor (quruq) makkajo‘xori asosli nonushta donlari va makkajo‘xoriga asoslangan gazaklar	800	
2.3.4	Faqat makkajo‘xori asosidagi qo‘shimcha oziq-ovqat mahsulotlari	200	Quruq moddalar uchun REMD ko‘rsatilgan.
2.3.5	Zarrachalari kattaligi > 500 mkm bo‘lgan makkajo‘xori donlari va bevosita inson iste‘moli uchun ishlatilmaydigan don hajmi > 500 mkm bo‘lgan boshqa maydalangan makkajo‘xori mahsulotlari	1400	
2.3.6	Zarrachalari kattaligi ≤ 500 mkm bo‘lgan	2000	

<p>makkajo‘xori donlari va bevosita inson iste‘moli uchun ishlatilmaydigan don hajmi ≤ 500 mkm bo‘lgan boshqa maydalangan makkajo‘xori mahsulotlari</p>	
---	--

2.4. Oxratoksin A

№	Oziq-ovqat mahsuloti	REMD, mkg/kg	Izoh
2.4.1	Qayta ishlanmagan don (don ekinlari)	5,0	
2.4.2	Qayta ishlanmagan don (don ekinlari) dan olingan barcha mahsulotlar, shu jumladan qayta ishlangan don mahsulotlari (don ekinlari) to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson iste‘moli uchun mo‘ljallangan, ushbu bo‘lim 2-bandining 9, 10 va 14-kichik bandlarida ko‘rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno.	3,0	

2.4.3	Qurtilgan uzum mevalari (qora urug'siz mayiz, mayiz, kishmish)	10,0	
2.4.4	Qovurilgan qahva donalari va maydalangan qahva donalari, eriydigan qahva bundan mustasno	5,0	
2.4.5	Eriydigan qahva (tez eriydigan qahva)	10,0	
2.4.6	Vino (sharob) (shu jumladan tabbiy achish yo'li bilan gazlangan sharoblar, disertli likyor sharoblari va alkogol miqdori kamida 15 foiz bo'lgan sharoblar bundan mustasno) va mevali sharob	2,0	REMD 2005 yilgi hosil va undan keyingi yillarda ishlab chiqarilgan sharoblarga nisbatan qo'llaniladi.
2.4.7	Xushbo'y sharob (vino), sharob, xushbo'y sharob asosli ichimliklar va xushbo'y sharobli kokteyllar	2,0	REMD 2005 yilgi hosil va undan keyingi yillarda ishlab chiqarilgan sharoblarga nisbatan qo'llaniladi.
2.4.8	To'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli uchun mo'ljallangan uzum sharbati, konsentrlangan uzum sharbati, uzum nektarlari, uzumni	2,0	REMD 2005 yilgi hosil va undan keyingi yillarda ishlab chiqarilgan sharoblarga nisbatan qo'llaniladi.

	tabbiy preslash oqibatida ajralgan sharbati va konsentrlangan uzum sharbati		
2.4.9	Tarkibida don bo'lmagan sut mahsulotlaridan tashqari qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari	0,50	Quruq moddalar uchun REMD ko'rsatilgan.
2.4.10	Chaqaloqlarga maxsus tibbiy maqsadlar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari	0,50	Sut va sut mahsulotlari uchun REMD foydalanishga tayyor oziq-ovqat mahsulotlari (bozorga shunday yoki ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq qayta tiklanganidan keyin), quruq moddalar uchun esa - sut va sut mahsulotlaridan tashqari bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgilangan.
2.4.11	Ziravorlar turlari, shu jumladan quritilgan ziravorlar:		
	<i>Piper</i> spp. (uning urug'lari, shu jumladan oq va qora qalampir) <i>Myristica fragrans</i> (muskat yong'og'i) <i>Zingiber officinale</i> (zanjabil) <i>Curcuma</i>	15	

	<i>longa</i> (kurkuma)		
	<i>Capsicum</i> spp (uning quritilgan mevalari, butun yoki maydalangan, shu jumladan chili, chili kukuni, qizil Kayen qalampiri va paprika)	20	
	Yuqorida ta'kidlangan ziravorlardan birini o'z ichiga olgan ziravorlar aralashmalari	15	
2.4.12	Oxirgi iste'molchi uchun mo'ljallanmagan bug'doy glyuteni (kleykovinasi).	8,0	

2.5. Patulin

	Mahsulot	REMD, mkg/kg	Izoh
2.5.1	Meva sharbatlari, konsentrlangan meva sharbatlari, qayta ishlangan va meva nektarlari.	50	
2.5.2	Olmadan olingan yoki tarkibida olma sharbati bo'lgan alkogolli ichimliklar, sidr (olma, kamroq	50	

	<p>nok yoki behi sharbatini madaniy xamirturush qo‘shib yoki tabiiy yo‘l bilan achitish natijasida olinadigan kam alkogolli ichimlik) va boshqa fermentlangan ichimliklar</p>		
2.5.3	<p>To‘g‘ridan-to‘g‘ri iste‘mol qilish uchun mo‘ljallangan olma mahsulotlari, shu jumladan olma kompoti va olma pyuresi, ushbu bo‘lim 3-bandining 4 va 5-kichik bandlarida ko‘rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno</p>	25	
2.5.4	<p>Olma sharbati va olmadan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan olma kompoti va olma pyuresi, chaqaloqlar va yosh bolalar uchun markirovkalangan va shu holatda sotuvga chiqariladigan mahsulotlar</p>	10,0	<p>REMD iste‘molga tayyor oziq-ovqat mahsulotlari (bozorga shunday holatda yoki ishlab chiqaruvchining ko‘rsatmalariga muvofiq qayta o‘z holiga qaytarilganidan so‘ng) uchun belgilanadi.</p>

2.5.5	Qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari, don (don ekinlari) asosidagi qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari va meva tarkibiy qismlari bo'lmagan boshqa qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari	10,0	REMD tayyor oziq-ovqat mahsulotlari uchun (bozorga shunday holatda yoki ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq qayta o'z holiga qaytarilganidan so'ng) belgilanadi.
-------	---	------	---

2.6. Zeoralenon

№	Mahsulot	Ruxsat etilgan maksimal daraja (mkg/kg)	Izoh
2.6.1	Qayta ishlanmagan don (don ekinlari), makkajo'xoridan tashqari	100	REMD dastlabki qayta ishlash uchun bozorda joylashtirilgan qayta ishlanmagan donlarga (don ekinlariga) nisbatan qo'llaniladi.
2.6.2	Qayta ishlangan makkajo'xoridan tashqari, tegirmonda nam maydalash, qayta ishlash uchun mo'ljallangan, qayta ishlanmagan makkajo'xori	350	REMD dastlabki qayta ishlash uchun bozorda joylashtirilgan qayta ishlanmagan donlarga (don ekinlariga) nisbatan qo'llaniladi. Markirovkasi tufayli istisno faqat makkajo'xori uchun amal qiladi, makkajo'xori tegirmonda nam maydalash

			jarayonida (kraxmal ishlab chiqarish) foydalanish uchun mo'ljallanganligi sababli.
2.6.3	<p>Odamlarning bevosita iste'moli uchun mo'ljallangan don (don ekinlari), to'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli uchun sotiladigan oziq-ovqat mahsuloti sifatida don (don ekinlari), kepak va urug'lardan olingan un, ushbu bo'lim 5-bandining 6-9-kichik bandlarida ko'rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno</p>	75	
2.6.4	<p>Rafinirlangan (hidsiz va ta'msiz sof moy) makkajo'xori moyi</p>	400	
2.6.5	<p>Non (shu jumladan katta bo'lmagan pishirilgan non mahsulotlari), asosi don bo'lgan qandolat mahsulotlari (don ekinlari), biskvitlar, donli gazaklar (don ekinlari) va tayyor (quruq) donli</p>	50	

	nonushta (don ekinlari), asosi makkajo'xori bo'lgan va iste'mol qilishga tayyor (quruq) gazaklar bundan mustasno		
2.6.6	To'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli uchun mo'ljallangan makkajo'xori, asosi makkajo'xori bo'lgan gazaklar va makkajo'xori asosidagi tayyor nonushtalar.	100	
2.6.7	Don tarkibida bo'lmagan sut mahsulotlaridan tashqari qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari	20	Quruq moddalar uchun REMD ko'rsatilgan.
2.6.8	Zarracha kattaligi >500 mkm bo'lgan makkajo'xori doni va to'g'ridan-to'g'ri inson iste'moli uchun ishlatilmaydigan >500 mkm o'lchamdagi boshqa makkajo'xori maydalagich mahsulotlari	200	
2.6.9	Zarracha kattaligi ≤500 mkm bo'lgan makkajo'xori doni va to'g'ridan-to'g'ri	300	

inson iste'moli uchun ishlatilmaydigan ≤ 500 mkm o'lchamdagi boshqa makkajo'xori maydalagich mahsulotlari		
--	--	--

2.7. Sitrinin (mkg/kg)

№	Mahsulot	REMD, mkg/kg	Izoh
2.7.1	<i>Monascus purpureus</i> qizil xamirturush bilan fermentlangan guruchga asoslangan parhez qo'shimchalari	100	

2.8. Sporiniyaning sklerotsiysi va sporiniyaning alkaloidlari (mkg/kg)

№	Mahsulot	REMD (mkg/kg)	Izoh
Sporiniyaning sklerotsiysi			
2.8.1.	Makkajo'xori va guruchdan tashqari qayta ishlanmagan don (don ekinlari)	0,5	REMD dastlabki qayta ishlash uchun bozorda joylashtirilgan qayta ishlanmagan donlarga (don ekinlariga) nisbatan qo'llaniladi. Markirovkasi tufayli istisno faqat makkajo'xori uchun amal qiladi,

			makko'xori tegirmonda nam maydalash jarayonida (kraxmal ishlab chiqarish) foydalanish uchun mo'ljallanganligi sababli
2.8.2.	Arpa, bug'doy, o'simlik va jo'xori un maydalash mahsulotlari (qoldiq miqdori 900 mg / 100 g quruq moddadan kam)	100	
2.8.3.	Arpa, bug'doy, o'simlik va jo'xori un tegirmonida maydalashdagi mahsulotlar (zol miqdori 150, 900 mg/100 g quruq moddaga teng yoki undan ko'p) Yakuniy iste'molchi uchun mo'ljallangan arpa, bug'doy, shingil va jo'xori donalari	150	
	Maydalangan javdar mahsulotlar; Yakuniy iste'molchi uchun mo'ljallangan javdar	500	
2.8.4.	Bug'doy kleykovinasi	400	
2.8.5.	Chaqaloqlar va yosh bolalar uchun donga asoslangan qayta	20	

	ishlangan ovqatlar	
--	--------------------	--

O'simlik toksinlari

3.1. Erukova kislotasi shu jumladan yog' bilan bog'langan erukova kislotasi

	Mahsulot	REMD (g/kg)	Izoh
3.1.1	Yakuniy iste'molchi uchun yoki oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibiy qismi sifatida foydalanish uchun bozorga chiqarilgan o'simlik moylari va yog'lar, 3.1.2-bandda sanab o'tilganlardan tashqari.	20,0	
3.1.2	Kamelina yog'i, xantal yog'i va borago yog'i.	50,0	Vakolatli organ tomonidan tasdiqlanganidan so'ng, REMD mahalliy ishlab chiqarilgan va iste'mol qilinadigan xantal yog'iga taalluqli emas.
3.1.3	Xantal (ziravorlar)	35,0	

3.2. Tropan alkaloidlari

	Mahsulot	Ruxsat etilgan maksimal ruxsat etilgan daraja (mg/kg)		Izoh
		Atropin	Skopolamin	
3.2.1	Tariq, jo‘xori, grechka, makkajo‘xori yoki ularning hosilalari bo‘lgan chaqaloqlar va yosh bolalar uchun bolalar ovqatlari va qayta ishlangan don mahsulotlari.	1,0	1,0	Olingan mahsulotlarga ushbu don mahsulotlarining kamida 80 foiz ni o‘z ichiga olgan mahsulotlar kiradi. REMD bozorga chiqarilgan mahsulotga nisbatan qo‘llaniladi.
		Atropin va skopolamin yig‘indisi		Atropin va skopolamin yig‘indisi uchun maksimal darajalar miqdoriy chegaradan past bo‘lgan barcha qiymatlar nolga teng deb hisoblangan pastki konsentratsiya chegarasiga ishora qiladi.
3.2.2	Qayta ishlanmagan tariq donalari va jo‘xori donalari		5,0	REMD qayta ishlashning birinchi bosqichidan oldin bozorga chiqarilgan qayta ishlanmagan donlarga nisbatan qo‘llaniladi.
3.2.3	Qayta ishlanmagan makkajo‘xori donalari		15	Ho‘l maydalash jarayonida (kraxmal ishlab chiqarish) foydalanish uchun mo‘ljallangan va ishlov berilmagan makkajo‘xori donlari, shuningdek xlopya tayyorlash uchun mo‘ljallangan ishlov berilmagan makkajo‘xori donlari bundan mustasno. REMD qayta ishlashning birinchi bosqichidan oldi, bozorga kiradigan qayta ishlanmagan makkajo‘xori donalariga nisbatan qo‘llaniladi
3.2.4	Qayta ishlanmagan grechka donalari		10	REMD qayta ishlashning birinchi bosqichidan oldin bozorga kelgan qayta ishlanmagan grechka doniga nisbatan qo‘llaniladi (⁶).
3.2.5	Keyingi pishirish uchun		5,0	

	<p>makkajo‘xori</p> <p>Tariq, jo‘xori va makkajo‘xori bozorda oxirgi iste‘molchiga taqdim etiladi</p> <p>Tariq, jo‘xori va makkajo‘xorini maydalash mahsulotlari</p>		
3.2.6	<p>Yakuniy iste‘molchi uchun mo‘ljallangan grechka</p> <p>Grechka maydalash mahsulotlari</p>	10	
3.2.7	<p>3.2.8 bandida sanab o‘tilganlardan tashqari o‘simlik tindirmaalari (quruq mahsulot) va o‘simlik tindirmalari uchun ishlatiladigan ingredientlar (quruq mahsulot).</p>	25	<p>“O‘simlik tindirmalari (quruq mahsulot)” quyidagilar kiradi:</p> <p>— o‘simliklardan tindirmalar (suyuq mahsulot) tayyorlash uchun ishlatiladigan o‘simliklarning gullari, barglari, poyalari, ildizlari va boshqa qismlaridan (paketlarda yoki sepiladigan ko‘rinishda) o‘simliklardan tayyorlanadigan tindirmalar (quruq mahsulot);</p> <p>- tez eruvchi o‘simliklardan tayyorlanadigan tindirmalar. Kukunli ekstraktlar bo‘lsa, konsentratsiya koeffitsienti 4 qo‘llanilishi kerak.</p>
3.2.8	<p>O‘simliklardan tayyorlangan tindirmalar (quruq mahsulot) va faqat arpabodiyon (anis) urug‘idan o‘simlik tindirmalari uchun ishlatiladigan ingredientlar (quruq mahsulot)</p>	50	<p>“O‘simlik tindirmalari (quruq mahsulot)” quyidagilar kiradi:</p> <p>— o‘simliklardan tindirmalar (suyuq mahsulot) tayyorlash uchun ishlatiladigan o‘simliklarning gullari, barglari, poyalari, ildizlari va boshqa qismlaridan (paketlarda yoki sepiladigan ko‘rinishda) o‘simliklardan tayyorlanadigan tindirmalar (quruq mahsulot);</p> <p>— tez eruvchi o‘simliklardan</p>

			tayyorlanadigan tindirmalar. Kukunli ekstraktlar bo'lsa, konsentratsiya koeffitsienti 4 qo'llanilishi kerak.
3.2.9	O'simliklardan tayyorlangan tindirmalar (suyuq mahsulot)	0,20	

3.3. Sinil kislotasi, shu jumladan sianogen glikozidlarga bog'langan sinil kislotasi

	Mahsulot	REMD (mg/kg)	Izoh
3.3.1	Yakuniy istemolchiga sotilmaydigan qayta ishlanmagan butun, maydalangan, ezilgan, kukun holatiga keltirilgan zig'ir urug'i	250	Presslashdan qolgan moyli urug'lar bozorda oziq-ovqat sifatida sotilmaslik sharti bilan, neftni maydalash va qayta ishlash uchun mo'ljallangan moyli urug'larga nisbatan maksimal darajalar belgilanmaydi.
3.3.2	Yakuniy istemolchiga sotiladigan qayta ishlanmagan butun, maydalangan, ezilgan, kukun holatiga keltirilgan zig'ir urug'i	150	REMD "Faqat oziq-ovqat va non hamda qandolat mahsulotlari uchun foydalaning" degan ogohlantirish bilan bozorga yakuniy iste'molchiga ko'p bo'lmagan miqdorda yetkazib beriladigan qayta ishlanmagan butun, maydalangan, ezilgan, kukun holatiga keltirilgan zig'ir urug'iga taalluqli emas. "Xom holatda iste'mol qilmang!" mahsulot yorlig'ining asosiy ko'z tushadigan joyiga (ma'lum shrift o'lchamidan foydalangan holda) yoziladi. Ishlov berilmagan butun, maydalangan, ezilgan, kukun holatiga keltirilgan, zig'ir urug'i ogohlantirish yozuvi bilan 3.3.1 bandida keltirilgan maksimal darajaga mos kelishi kerak.
3.3.3	Qayta ishlanmagan butun, maydalangan, qayta maydalangan, ezilgan, kukun holiga keltirilgan bodomlar bozorga yakuniy iste'molchiga yetkazib berish uchun.	35	REMD "Faqat oziq-ovqat va non hamda qandolat mahsulotlari uchun foydalaning" degan ogohlantirish bilan bozorga yakuniy iste'molchiga ko'p bo'lmagan miqdorda yetkazib beriladigan qayta ishlanmagan butun, maydalangan, ezilgan, kukun holatiga keltirilgan achchiq bodomga taalluqli emas.

			“Xom holatda iste’mol qilmang!” mahsulot yorlig‘ining asosiy ko‘z tushadigan joyiga (ma’lum shrift o‘lchamidan foydalangan holda) yoziladi.
3.3.4	Qayta ishlanmagan butun, maydalangan, kukun holatiga keltirilgan, ezilgan, qayta maydalangan o‘rik urug‘i bozorga yakuniy iste’molchiga yetkaziladi.	20,0	Yakuniy iste’molchi uchun qayta ishlanmagan butun, maydalangan, qayta maydalangan, ezilgan, maydalangan o‘rik urug‘larini sotuvchi operator vakolatli organning talabiga binoan sotilgan mahsulotning maksimal darajaga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart..
3.3.5	Manioki ildizi (yangi, tozalangan)	50,0	
3.3.6	Manioki un va tapioki uni	10,0	
3.3.6	Sharu (manioki xlopyasi (bo‘laklari))	2.0	

3.4. Pirolizidin alkaloidlari

	Mahsulot	REMD (mkg/kg)	Izoh
		<p>REMD quyidagi 21 pirrolizidin alkaloidlari yig‘indisining pastki chegarasiga to‘g‘ri keladi:</p> <p>— intermedin/likopsamin, intermedin-N-oksidi/likopsamin-N-oksidi, senetsionin/senetsivernin, senetsionin-N-oksidi/senetsivernin-N-oksidi, senesifillin, senesifillin-N-oksidi, retrorsin, retrorsin-N-oksidi, eximidin, eximidin-N-oksidi, laziokarpin, laziokarpin-N-oksidi, senkirkin, yevropin, yevropin-N-oksidi, geliotrin va geliotrin-N-oksidi</p> <p>- va yuqorida aniqlangan 21 ta pirrolizidin alkaloidlaridan biri yoki bir nechta bilan birgalikda elutsiya qilinishi ma’lum bo‘lgan quyidagi qo‘shimcha 14 ta pirrolizidin alkaloidlari, hozirda qo‘llanilayotgan ba’zi</p>	<p>Pirrolizidin alkaloidlari uchun maksimal darajalar miqdoriy chegaradan past bo‘lgan barcha qiymatlar nolga teng deb hisoblab chiqiladigan pastki konsentratsiya chegarasiga ishora qiladi.</p>

		<p>analitik usullardan foydalangan holda:</p> <p>— inditsin, exinatin, rinderin (likopsamin/intermedinom bilan birgalikdagi elutsiyasi), inditsin-N-oksid, exinatin-N-oksid, rinderin-N-oksid (likopsamin-N-oksidom/intermedinom-N-oksid bilan birgalikdagi elutsiyasi), integerrimin (senesivernin/senekionin bilan birgalikdagi elutsiyasi), integrimin-N-oksid (senesivernin-N-oksid/senekionin-N-oksid bilan birgalikdagi elutsiyasi), geliozupin (eximidin bilan birgalikdagi elutsiyasi), geliosupin-N-oksid (eximidin-N-oksid bilan birgalikdagi elutsiyasi), spartioidin (senesifillin bilan birgalikdagi elutsiyasi), spartioidin-N-oksid (senesifillin-N-oksid bilan birgalikdagi elutsiyasi), usaramin (senesifillin-N-oksid bilan birgalikdagi elutsiyasi), usaramin (senesifillin bilan birgalikdagi elutsiyasi) retrorsin bilan elutsiyasi), N-oksid uzaramin (N-oksidom retrorsin bilan birgalikdagi elutsiyasi).</p> <p>Ishlatilgan tahlil usuli yordamida individual va alohida aniqlanishi mumkin bo'lgan pirrolizidin alkaloidlari miqdoriy jihatdan aniqlanishi va hisoblanayotgan yig'indiga kiritilishi kerak.</p>	
3.4.1	Bozorga yakuniy iste'molchi uchun yetkazib beriladigan kamelina barglari (yangi holatda, muzlatilgan holatda).	750	Qattiqroq milliy darajalarga qarab ruxsat beriladi.
3.4.2	3.4.3-bandda sanab o'tilgan mahsulotlardan tashqari quritilgan o'tlar.	400	Qattiqroq milliy darajalarga qarab ruxsat beriladi.

3.4.3	Burachnik, lyubistok, mayoran va oregano (quritilgan mahsulot) va faqat shu quritilgan o‘tlardan tashkil topgan aralashmalar.	1 000	Qattiqroq milliy darajalarga qarab ruxsat beriladi.
3.4.4	Choy (<i>Camellia sinensis</i>) va xushbo‘y choy (¹²) (<i>Camellia sinensis</i>) (quruq mahsulot), 3.4.5-bandda ko‘rsatilgan choy va xushbo‘y choy bundan mustasno.	150	3-modda quritilgan mevalar va quritilgan o‘tlarni o‘z ichiga olgan choylarga nisbatan qo‘llaniladi. “Choy (<i>Camellia sinensis</i>) (quritilgan mahsulot)” quyidagilarga tegishli: choy (<i>Camellia sinensis</i>) (quritilgan mahsulot) choy (suyuq mahsulot) tayyorlash uchun ishlatiladigan quritilgan barglar, poyalar va gullardan (kichik paketchalarda yoki sepiladigan ko‘rinishda); va — eruvchi choylar. Choy kukuni ekstrakti uchun 4 konsentratsiyali koeffitsient qo‘llanilishi kerak.
3.4.5	Choy (<i>Camellia sinensis</i>),	75	

	xushbo‘y choy (¹²) (<i>Camellia sinensis</i>) va o‘simlik tindirmalari (quruq mahsulot), shuningdek, chaqaloqlar va yosh bolalar uchun o‘simlik tindirmalari (quruq oziq-ovqat mahsulotlari) uchun ishlatiladigan ingrediyentlar		
3.4.6	Chaqaloqlar va yosh bolalar uchun choy (<i>Camellia sinensis</i>), xushbo‘y choy (¹²) (<i>Camellia sinensis</i>) va o‘simlik tindirmalari (quruq mahsulot)	1,0	
3.4.7	3.4.5 va 3.4.8 bandlarida sanab o‘tilganlardan tashqari o‘simlik tindirmalari (quruq mahsulot) va o‘simlik tindirmalari uchun ishlatiladigan ingrediyentlar (quruq	200	“O‘simlik tindirmalari (quritilgan mahsulot)” ga quyidagilar tegishli: — O‘simlik tindirmalari (quruq mahsulot) gullar, barglar, poyalar, ildizlar va o‘simliklarning boshqa

	mahsulot).		<p>qismlaridan (kichik paketchalarda yoki sepiladigan holatda) o‘simlik tindirmalari (suyuq mahsulot) tayyorlash uchun ishlatiladi;</p> <p>—</p> <p>tez eriydigan o‘simlik tindirmalari. Kukunli ekstraktlar bo‘lsa, konsentratsiya koeffitsienti sifatida 4 ni qo‘llash kerak.</p> <p>Pirrolizidin alkaloidlarini o‘z ichiga olgan o‘simliklarni bozorga chiqarish bo‘yicha ba’zi Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarda qat’iy milliy qoidalarni buzmasdan.</p>
`	O‘tli damlamalar (quruq mahsulot) va o‘simlik damlamalari (quruq mahsulotlar) uchun ishlatiladigan ingrediyentlar: raybush, arpadiyon	400	<p>“O‘tli damlamalar (quritilgan mahsulot)” ga quyidagilar kiradi:</p> <p>- o‘t damlamasi (suyuq mahsulot) tayyorlash uchun o‘simliklarning gullari, barglari, poyalari, ildizlari va boshqa har qanday qismlaridan</p>

	(Pimpinella anisum), melissa, moychechak, timyan, qalampir yalpiz, limon verbenasi va faqat shu quritilgan o‘tlardan iborat bo‘lgan aralashmalar, 3.4.5-bandda ko‘rsatilgan o‘simlik damlamalaridan tashqari		(paketlarda yoki to‘kilgan holda) foydalaniladigan o‘t damlamalari (quruq mahsulot); va - tez eriydigan o‘t damlamalariga. Kukun shaklidagi ekstraktlar uchun 4 konsentratsiya koeffitsiyentini qo‘llash kerak.
3.4.9	Tmin	400	
3.4.10	Tarkibida o‘simlik dori vositalari bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shimchalari, shu jumladan ekstraktlar, 3.4.11-bandda sanab o‘tilgan mahsulotlar bundan mustasno.	400	REMD bozorda taqdim etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalariga nisbatan qo‘llaniladi. Yanada qat’iy milliy darajalar qo‘llaniladi.
3.4.11	O‘simlik changi asosidagi oziq-ovqat qo‘shimchalari O‘simlik changi va chang mahsulotlari	500	REMD bozorda taqdim etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalariga nisbatan qo‘llaniladi.

3.5. Opiy alkaloidlari

№	Oziq-ovqat mahsulotlari	REMD (mg/kg)	Izoh
			<p>Opiy alkaloidlari uchun maksimal darajalar konsentratsiyaning quyi chegarasiga tegishli bo'lib, u miqdoriy aniqlash chegarasidan pastdagi barcha qiymatlar nolga teng deb hisoblanadi.</p> <p>REMD morfin va kodein yig'indisiga tegishli bo'lib, buning uchun kodein darajasiga 0,2 koeffitsiyenti qo'llaniladi. Demak, maksimal ruxsat etilgan daraja morfin + 0,2 × kodein yig'indisiga to'g'ri keladi.</p>
3.5.1	Yakuniy iste'molchiga bozorga yetkazib beriladigan butun, maydalangan yoki yanchilgan ko'knori urug'i.	20	
3.5.2	Tarkibida ko'knori urug'i bo'lgan non va non mahsulotlari yoki uni qayta ishlash mahsulotlari	1,50	<p>Non va non mahsulotlari iste'molga tayyor gazaklar va un asosidagi gazaklarni ham o'z ichiga oladi.</p> <p>Ularni qayta ishlash mahsulotlari tarkibida kamida 80 foiz ko'knori mahsuloti bo'lgan mahsulotlar jumlasiga kiradi.</p> <p>Non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi oziq-ovqat biznesi operatoriga mak yetkazib beruvchi oziq-ovqat biznesi operatori non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchisiga eng yuqori darajaga muvofiq bo'lgan mahsulotni bozorga joylashtirish imkonini beradigan zarur axborotni taqdim etishi shart. Bu ma'lumot zarur bo'lgan joyda tahliliy ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.</p>

3.6. Delta-9-tetragidrokannabinolning (Δ^9 -TGK) ekvivalentlari

№	Mahsulot	Ruxsat etilgan maksimal darajalar (mg/kg)	Izoh
			<p>Delta-9-tetragidrokannabinol (Δ^9-THC) ekvivalentlari uchun maksimal darajalar konsentratsiyaning quyi chegarasiga tegishli bo'lib, u miqdoriy aniqlash chegarasidan pastdagi barcha qiymatlar nolga teng deb taxmin qilinadi.</p> <p>REMD delta-9-tetragidrokannabinol (Δ^9 - THC) va delta-9-tetragidrokannabinol kislotasi (Δ^9 - THCA) yig'indisiga tegishli bo'lib, Δ^9 - THC sifatida ifodalanadi.</p> <p>Δ^9 -THCA darajasiga 0,877 koeffitsiyent qo'llaniladi va maksimal ruxsat etilgan daraja Δ^9 -THC + 0,877 \times Δ^9 -THCA yig'indisiga tegishli (alohida aniqlangan va Δ^9 -THC va Δ^9 -TGKK miqdoriy aniqlangan holda).</p>
3.6.1	Kanop urug'i	3,0	
3.6.2	Maydalangan kanop urug'i, (qisman) yog'sizlantirilgan kanop urug'i va kanop urug'larini qayta ishlashning boshqa mahsulotlari, 3.6.3-bandda sanab o'tilgan mahsulotlar bundan mustasno.	3,0	Kanop urug'larini qayta ishlash mahsulotlari – bu faqat kanop urug'laridan olingan mahsulotlardir.
3.6.3	Kanop urug'i moyi	7,5	

Metallar

4.1. Qo'rg'oshin (mg/kg)

№	Mahsulot	Ruxsat etilgan maksimal darajalar (mg/kg)	Izoh
4.1.1.	Sabzavot va mevalar Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal daraja sabzavot va mevalarning nam vazniga to'g'ri keladi. Yo'l qo'yiladigan maksimal daraja yuvilgandan va yeyiladigan qism ajratib olingandan keyin qo'llaniladi.		
4.1.1.1	Klyukva, qorag'at, buzina rezavor mevalari, tut	0,20;	
4.1.1.2	Rezavorlar va boshqa mayda mevalar, klyukva, qorag'at, munchoq va qulupnay mevalaridan tashqari.	0,10	
4.1.1.3	Boshqa qolgan mevalar	0.10	
4.1.1.4	Ildizmevalar va yer ostida ildizidan hosil bo'luvchi sabzavotlar	0,10	Kartoshka uchun REMD tozalangan kartoshka uchun qo'llaniladi.
4.1.1.5	Yangi zanjabil, yangi zarchava (kurkuma)	0.10	
4.1.1.6	Skorsonerra (qora rangli ildiz yoki Ispan kozeletsi)		
4.1.1.7	Piyozli o'simliklar	0,10	REMD nam holatdagi vaznga tegishlidir. Ruxsat etiladigan maksimal daraja yuvilgandan va yeyiladigan qism ajratib olingandan keyin qo'llaniladi.
4.1.1.8	Mevali sabzavotlar (yer	0,050	

	yuzasida o'sadigan, shu o'simliklarning urug'langan gullaridan hosil bo'ladigan sabzavot o'simliklariga aytiladi)		
4.1.1.9	Shirin makkajo'xori	0,10	
4.1.1.11	Oqbosh karam va boshqa krestguldoshlar	0,10	
4.1.1.12	Bargli sabzavotlar, yangi ko'katlar va iste'mol qilinadigan gullardan tashqari	0,30	REMD nam holatdagi vaznga tegishlidir. Ruxsat etiladigan maksimal daraja yuvilgandan va yeyiladigan qism ajratib olingandan keyin qo'llaniladi.
4.1.1.13	Struchkalilar	0,10	REMD nam holatdagi vaznga tegishlidir. Ruxsat etiladigan maksimal daraja yuvilgandan va yeyiladigan qism ajratib olingandan keyin qo'llaniladi.
4.1.1.14	Poyali sabzavotlar (Rovoch, kolrabi, sparja)	0,10	REMD nam holatdagi vaznga tegishlidir. Ruxsat etiladigan maksimal daraja yuvilgandan va yeyiladigan qism ajratib olingandan keyin qo'llaniladi..
4.1.1.15	Quyidagi yetishtiriladigan qo'ziqorinlar: Oddiy qo'ziqorin	0,30	

	(<i>Agaricus bisporus</i>) Veshenka <i>Pleurotus ostreatus</i> . Shiitake qo'ziqorini (<i>Lentinula edodes</i>)		
4.1.1.16	Yovvoyi qo'ziqorinlar	0,80	
4.1.1.17	Dukkaklilar	0,1	
4.1.1.18	Donlar	0,20	
4.1.2. Quritilgan ziravorlar			
4.1.2.1	Ziravorlar urug'i	0,90	
4.1.2.2	Mevali ziravorlar	0,60	
4.1.2.3	Qobiqdan tayyorlangan ziravorlar	2,0	
4.1.2.4	Ildiz va ildizpoyadan tayyorlangan ziravorlar	1,50	
4.1.2.3	Butanli (shonali) ziravorlar	1,0	
4.1.2.6	Gul urug'idan tayyorlangan ziravorlar	1,0	
4.1.3. Hayvonlardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari			
4.1.3.1	Qoramol, qo'y, cho'chqa va parranda go'shti, subproduktlar (ichki a'zolari) bundan mustasno	0,10	REMD nam vaznga tegishlidir.
4.1.3.2	Qoramol va qo'ylarning qo'shimcha (submahsulotlari) mahsulotlari	0,20	
4.1.3.3	Cho'chqaning submahsulotlari	0,15	

4.1.3.4.	Parranda submahsulotlari	0,10	
4.1.3.5	Baliq mahsulotlari va ikki pallali mollyuskalar	0.3	Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan maksimal daraja nam vaznga tegishlidir.
4.1.3.6	Xom sut, termik ishlov berilgan sut va sut asosli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sut.	0,020	Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan maksimal daraja nam vaznga tegishlidir.
4.1.3.7	Asal	0,10	
4.1.4	Yog‘-moy mahsulotlari		
4.1.4.1.	Yog‘lar va moylar	0,08	Shu jumladan sut yog‘i.
4.1.4.2.	Yog‘li spredlar va kupajli spredlar	0.04	
4.1.5.	Ichimliklar va meva-sabzavot mahsulotlari		
4.1.5.1	Meva sharbatlari, konsentratdan tayyorlangan meva sharbatlari, konsentrlangan meva sharbatlari va meva nektarlari	0.03	REMD nam vaznga tegishlidir. Konsentrlangan meva sharbati uchun maksimal ruxsat etilgan daraja tiklangan sharbatga nisbatan qo‘llaniladi.
4.1.5.2	Faqat rezavorlar va boshqa mayda mevalardan tayyorlangan sharbatlar	0,05	
4.1.5.3	Uzum sharbati, vino, sidr, perri va mevali vino	0.04	REMD nam holatdagi vaznga tegishlidir. Shu jumladan tabbiy achish yo‘li bilan kam gazlangan sharoblar va ko‘p gazlangan vinolar, likyorli

			vinolar va kuchliligi 15 foiz dan kam bo‘lmagan vinolardan tashqari.
4.1.5.4	Konservalangan mevalar	0.10	
4.1.5.5	Jemlar, jele va marmeladlar	0.40	
4.1.5.6	Konservalangan sabzavotlar	0.10	
4.1.5.7	Konservalangan tomatlar (tomat pastasi)	0.05	
4.1.5.8	Xo‘raki zaytunlar	0.40	
4.1.5.9	Tuzlangan bodringlar	0.10	
4.1.6	Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari		
4.1.6.1.	Osh tuzi	1,0	
